

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 37.091.113:005.963

TEMIROV ORTIQ SUYUNOVICH

OLIY TA’LIM TIZIMI BOSHQARUVIDA ZAMONAVIY RAHBAR
XODIMLARNI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.07 –Ta’limda menejment
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: pedagogika fanlari doktori,
professor M. Xakimova

TOSHKENT – 2025

MUNDARIJA		
	KIRISH.....	3
I Bob	OLIY TA'LIM TIZIMI BOSHQARUVIDA ZAMONAVIY RAHBAR XODIMLARNI TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI	12
§ 1.1.	Oliy ta'lim muassasasini zamonaviy boshqarish xususiyatlarini o'rganishga nazariy va empirik yondashuvlar.....	12
§ 1.2.	Oliy ta'lim tizimini boshqarish tamoyillari, metodologik yondashuvlari va boshqarish sifatiga ta'sir qiluvchi omillar.....	25
§ 1.3.	Oliy ta'lim tizimi boshqaruvida zamonaviy rahbar xodimlarni tayyorlash bo'yicha mamlakatimiz va xorijiy tajribalar tahlili.....	30
	Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	51
II Bob	OLIY TA'LIM TIZIMI BOSHQARUVIDA ZAMONAVIY RAHBAR XODIMLARNI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH SHART-SHAROITLARI	53
§ 2.1.	Oliy ta'lim tizimida zamonaviy rahbar xodimlarni tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari.....	53
§ 2.2.	Oliy ta'lim tizimi boshqaruvida zamonaviy rahbar xodimlarni tayyorlash modeli.....	68
§ 2.3.	Oliy ta'lim tizimi boshqaruvida zamonaviy rahbar xodimlarni tayyorlash modelini samarali amalga oshirishning pedagogik mexanizmlari.....	84
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	98
III Bob	OLIY TA'LIM TIZIMI BOSHQARUVIDA ZAMONAVIY RAHBAR XODIMLARNI TAYYORLASH BO'YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARI VA NATIJALARI TAHLILI	101
§ 3.1.	Oliy ta'lim tizimi boshqaruvida zamonaviy rahbar xodimlarni tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etilishi.....	101
§ 3.2.	Tajriba-sinov ishlarining matematik statistik tahlili	115
	Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	126
	XULOSALAR	127
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	129
	ILOVALAR.....	

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi).

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalarida o'ta shiddatli rivojlanib borishi iqtisodiyotni samarali rivojlantirish ko'p jihatdan boshqaruv jarayoni samaradorligiga bog'liqligi sababli xalqaro mehnat bozorlarida raqobatbardosh kadrlar va rahbar boshqaruv xodimlarini tayyorlovchi oliy ta'lim sifati o'ta muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. "Raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt davrida oliy ta'lim tizimlari bilimlar iqtisodiyoti va global mehnat bozorlari talablariga mos boshqaruv va tahliliy kompetensiyalarni rivojlantirishi shart"¹. Bugungi kunda jahonda istiqbol talablariga ko'ra oliy ta'lim tizimida malakali mutaxassislar va boshqaruv xodimlarini tayyorlashda ta'lim jarayonini innovatsion boshqaruv strategiyalari va innovatsion yondashuvga ko'ra samarali tashkil qilish, boshqaruv xodimlarida yuqori darajada axborot-tahliliy kompetentlikni rivojlantirishga doir pedagogik-tashkiliy tizimli ishlarni amalga oshirish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda samarali ishlab chiqarishni tashkil qilish va ta'lim sifatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida bo'lajak rahbar boshqaruv xodimlarini tayyorlashning iqtisodiy va pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish borasidagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada zamonaviy rahbar xodimlarni tayyorlashning pedagogik-iqtisodiy texnologiyalarini takomillashtirish orqali inson resurslarini faollashtirish, axborotlarni tezkor o'zlashtirish va alternativ yechimlar tizimiga ko'ra optimal qarorlarni qabul qilish, boshqaruv faoliyatiga oid masalalarni samarali hal etishga tayyorlashning pedagogik texnologiyalarni taklif qilish, o'z-o'zini rivojlantirish va kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqotlar keng qamrovda amalga oshirilmoqda.

Yangi O'zbekiston qurilishi va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish jarayonida milliy iqtisodiyotni innovatsion asoslarda rivojlantirish, ta'lim sifatini jahon talablari darajasiga ko'tarish, xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, oliy ta'lim tizimida tayyorlanadigan bo'lajak rahbar boshqaruv xodimlari kasbiy kompetentlikligini maqsadli rivojlantirishda pedagogik shart-

¹ UNESCO (2021). "Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education" hisobotidan:

sharoitlarni sifat jihatdan yangi darajada tashkil qilish kabi yo‘nalishlarda maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Har bir oliy ta’lim muassasasi dunyoning yetakchi ilmiy va ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi, o‘quv jarayoniga ilg‘or texnologiyalarni keng joriy etishga intilishi, o‘quv dasturlari va o‘quv materiallari asosida xalqaro ta’lim standartlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy faoliyatga faol jalb qilishi, mahorat darslarini o‘tkazish, do‘stona xorijiy ta’lim muassasalarining yuqori malakali o‘qituvchilari va olimlari uchun malaka oshirish kurslari va ular asosida tizimli ravishda yosh o‘qituvchi va tadqiqotchilar uchun amaliyot o‘tashni tashkil etish, shuningdek professor-o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish”² kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda oliy ta’lim tizimida zamonaviy rahbar va boshqaruv xodimlarini tayyorlashning samarali pedagogik shart-sharoitlarini sifat jihatdan amalga oshirish hamda bunday kadrlarni tayyorlash bo‘yicha maqsadli pedagogik, pedagogik-iqtisodiy va pedagogik-psixologik tadbirlar samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarni yanada keng tashkil etish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, “2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5 iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, “2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “2023

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

yil 4 apreldagi PQ 108-son “Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ilmiy yondashuvlarni kengaytirish va boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “2022 yil 22 avgustdagi PQ-357-son “2022-2023 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda mazkur tadqiqot ishi ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda oliy ta’limda innovatsion boshqaruvni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish, kadrlarining boshqaruv kompetentligini shakllantirish N.Q.Yo‘ldoshev, D.Kasimova, R.X.Djurayev, X.I.Ibragimov, Sh.E.Qurbonov, S.S.G‘ulomov, M.T.Mirsoliyeva, M.Pardayev, Y.U.Ismadiyarov, O.X.Xamidov, M.Sharifxo‘jayevlar³ rahbar va mutaxassislarning uzluksiz kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish N.Sh.Abdullayeva, N.Ahmedova, M.Innazarov, T.Kalmuratov, Sh.Nizamova, B.Ilhomov, J.Shaturayevlar ta’lim tizimi sifat monitoringi S.T.Turg‘unov, U.I.Inoyatov, U.Sh.Begimqulov, Sh.Q.Mardanov, N.A.Muslimov, M.A.Yuldashev, B.U.Usmonov, U.N.Xodjamqulovlar⁴ ilmiy tadqiqot ishlarini olib

³ Yo‘ldoshev N. Q., Birja va yarmarka faoliyatini boshqarish menejment yo‘nalishi bo‘yicha darslik, Toshkent : Sano-standart, 2014, 231 b., Kosimova D.S., Boshqarish nazariyasi, O‘quv qo‘llanma, T.,2007., R.X.Djurayev, S.T.Turg‘unov. Ta’lim menejmenti. O‘quv qo‘llanma. Voris-nashriyot. Toshkent. 2006 yil., Ibragimov X.I., Pedagogika nazariyasi, darslik. Fan va texnologiya nashriyoti, T., 2008, Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta’lim tizimini boshqarish. -T.:”Turon iqbol, 2006. – 592 b., Gulomov S.S.Menejment asoslari. T., “ Sharq”, 2002 yil, 107-bet, Mirsoliyeva M.T. Oliy ta’lim muassasalari raxbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Avtoreferat. T. 2019 y., M.Pardayev., Boshqaruvda rahbarlik va liderlik mahorati, o‘quv qo‘llanma, Navro‘z nashriyoti, T., 2012, Y.U.Ismadiyarov - Kasbiy pedagogika O‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2014, Xamidov O.H. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. (DSc) ... diss. avtoref. – Samarqand 2017 – 26 6, Sharifxo‘jaev R, Abdullaev M. Menejment. T.,”O‘qituvchi”, 2001 yil, 497-bet.

⁴Abdullayeva Sh.X. Pedagog professional kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari: Psixol.f.d. (DSc) ... dis.: 19.00.05. – T.: O.,zMU, 2019. – 225 b., Akhmedova, N.E. (2023). People’s practical art traditions as the basis for developing the artistic-pedagogical abilities of future art teachers. Science and innovation,

borilgan.

Zamonaviy boshqaruvning rivojlanishida R.Anisimov, P.Ananin, T.Vasileva, Z.Bagirova, E.Belova, I.Gancherenok, O.Karpova, S.Muxoyed, O.Sitnikova, M.Shifrin va boshqalarning ishlari ahamiyatli ekanini ta'kidlab o'tish lozim. Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv masalalari A.Egorshin, S.Reznikning⁵ ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Oliy ta'lim tizimida boshqaruvning amaliy va nazariy masalalari P.Altbach, T.Bush, M.Fullan, J.Knight, A.Kezar, S.Marginson⁶ kabilarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya

2(B4), 701-705, Innazarov. M., Kredit modul tizimi va o'quv jarayoni tashkil etish, o'quv uslubiy majmualar, Bosh ilmiy metodik markaz, T., 2021, Kalmuratov. T. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarishning amaliyotdagi mavjud holati //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 38. – С. 776-779., Низамова Ш.И. Методы управления в профессиональном становлении личности преподавателей гуманитарных наук // Вестник науки и образования № 4(58). Часть 2. 2019. С.56-59., B.Ilxomov, Budjet tashkilotlarida xizmat safari xarajatlari hisob kitoblarni amalga oshirish Buxgalteriya hisobi va hisoboti, Invest book, 2022, Shaturaev, J. va G.Bekimbetovalar. "Ta'limni boshqarish va ta'lim etakchiligi o'rtasidagi farq va ta'lim mas'uliyatining ahamiyati". InterConf, (88). vilucheno IZ (2021)., Turg'unov S.T., Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini o'qitish texnologiyalari, T : Riso, 2014, Inoyatov U.I, Pedagogika [Matn], Darslik, T : Nizomiy nomidagi TDPU, 2014, Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 159 b, Mardonov Sh.Q. Yangi ta'limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. –Toshkent: Fan, 2006. -232 b., Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 208 b., Yuldashev M.A., Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi-yangi sifat bosqichida, T., 2014. - № 6, U.N.Xo'jamqulov "Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ta'rif, tavsif, tasnif. Uslubiy qo'llanma, Chirchiq-2019 y.

⁵ Анисимов, П.Ф. О задачах вузов по переходу на уровневую систему высшего профессионального образования/ П.Ф.Анисимов //Высшее образование в России. - 2010. -№ 3. - С. 3-7., Ананьин, П.С. Становление управленческой культуры специалиста социальной работы в процессе послевузовского образования: автореф. дис. ... канд. пед. наук : 13.00.08 / П. С. Ананьин. - Красноярск, 2006. - 19 с., Васильева Т. П., Елизарова Е. М., Киселева Ю. А., Рагинская В. Н. Внутришкольный контроль: организация, планирование, анализ. – Волгоград: Учитель, 2007. – 222 с., Багирова, З. К. Формирование управленческой культуры будущего руководителя образования: автореф. дис. ... канд. пед. наук : 13.00.08 / З.К.Багирова. - Махачкала, 2008. - 18 с., Ганчеренок, И. И. Аспирантура, или третий цикл образования [Текст] / И.И.Ганчеренок // Alma mater. - 2010. - № 4. - С. 24-28., Ганчеренок, И.И. Аспирантура, или третий цикл образования / И.И.Ганчеренок // Alma mater. - 2010. - № 4. - С. 24-28., Ганчеренок, И.И. Аспирантура, или третий цикл образования/ И.И.Ганчеренок // Alma mater. - 2010. - № 4. - С. 24-28., Мухоед, С. Д. Управленческая культура военного руководителя / С.Д.Мухоед // Известия Саратовского университета. - 2009. - Т.1 (Серия Философия. Психология. Педагогика). - С. 110-113, Ситникова, О. Управление конфликтами в социально-трудовых отношениях: документальное обеспечение/ О. Ситникова //Кадровик. Кадровое делопроизводство. - 2010. - № 6. - С. 5-11., Соколов АГ. Управленческие решения. Библиотека менеджера. - М.: Андреевский Издательский дом, 2005. - 215 с.,

⁶ Altbach, P. G., Reisberg, L., & Rumbley, L. E.Trends in Global Higher Education: Tracking an Academic Revolution. – Paris: UNESCO, 2009. Bush, T. Theories of Educational Leadership and Management [Text]. – 4th ed. – London: SAGE, 2011., Fullan, M. The New Meaning of Educational Change [Text]. – 4th ed. – New York: Teachers College Press, 2007., Knight, J. Internationalization Remodeled: Definition, Approaches, and Rationales// Journal of Studies in International Education. – 2004. – Vol. 8, № 1. – P. 5-31., Kezar, A. J. How Colleges Change: Understanding, Leading, and Enacting Change. – London: Routledge, 2014., Marginson, S., & van der Wende, M. Globalisation and Higher Education // OECD Education Working Paper. – 2007.

tadqiqoti Jizzax politexnika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga ko'ra OT-F1-049 raqamli "Talabalarda assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2017-2021 yy.).

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim tizimi boshqaruvida zamonaviy rahbar xodimlarni tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta'lim tizimi boshqaruvida zamonaviy rahbar xodimlarni tayyorlashni takomillashtirishning muhim yo'nalishlarini tahlil qilish;

oliy ta'lim tizimini boshqarish tamoyillari, metodologik yondashuvlari va boshqarish sifatiga ta'sir qiluvchi omillarini aniqlashtirish;

oliy ta'lim tizimida zamonaviy rahbar va boshqaruv xodimlarini tayyorlash modelini takomillashtirish;

bo'lajak mutaxassislarni boshqaruv faoliyatiga tayyorgarligini diagnostika qilish mezonlarini takomillashtirish;

oliy ta'lim tizimida zamonaviy rahbar boshqaruv xodimlarini tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha pedagogik-tashkiliy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida oliy ta'lim tizimi boshqaruvida zamonaviy rahbar xodimlarni tayyorlashni takomillashtirish jarayoni bo'yicha tajriba-sinov ishlariga Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Farg'ona davlat universiteti, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining jami 395 nafar talabalari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim tizimi boshqaruvida zamonaviy rahbar xodimlarni tayyorlashni takomillashtirish funksiyalari, mexanizmi va baholash mezonlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida loyihalashtirish, qiyosiy-taqqoslash, tahliliy, analogiya, so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish, matematik va pedagogik tajriba-sinov kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim tizimida zamonaviy rahbar boshqaruv kadrlarni tayyorlash modeli muammoga protsessual-texnologik va analitik-samarali bloklarning pedagogik-tashkiliy birligi hamda pedagogik-boshqaruv faoliyatida ijtimoiy yo'nalishning uchta pozitsiyadan ko'rib chiqilishi zarurati (ijtimoiy ehtiyoj-larning umumiy yo'nalishi; ta'lim tizimi talablari; ta'lim muassasasining talablari) kabilarga ko'ra prognostik qarash asosida takomillashtirilgan;

tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra tanlangan pedagogik sharoitlar yetarli ekanligini isbotlangan holda tadqiqotning maqsadli auditoriyasi uchun raqamli transformatsiya, menejment, HR, moliya boshqaruvi kabilar bo'yicha qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini hamda sadorlik salohiyatini rivojlantirishda motivatsiyalash, jamoa bilan ishlash va ijtimoiy mas'uliyat yuzasidan tizimli seminarlarni tashkil qilishning maqsadga muvofiqligiga asoslangan.

boshqaruv kompetentligining kommunikativ-ijodiy muhitini tashkil qilish mazmuni iqtisodiyot sohasidagi o'zgarishlar va ehtiyoj asosida maqsadlarga sinxron tarzda ta'lim jarayonini moslashtirib borish hamda faoliyatning o'ziga xos ijtimoiy xususiyatini e'tiborga olgan holda ta'lim mazmunida boshqaruv qarorini qabul qilishdagi ijtimoiy mas'uliyatga alohida urg'u berish asosida takomillashtirilgan;

oliy ta'lim tizimida boshqaruv xodimlarini tayyorlashning asosiy mezonlari ijtimoiy-kasbiy bilimlar, bashoratlash qobiliyati, kasbiy va boshqaruv qobiliyat, innovatsiyalarga tayyorlik, tashkiliy mahorat, kasbiy va shaxsiy fazilatlardan iboratligining maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat: Zamonaviy rahbar va boshqaruv xodimlarini tayyorlash mazmuni, shakllari, usullari va vositalarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarga asoslangan;

oliy ta'limning iqtisodiyot yo'nalishlari bo'yicha o'tiladigan "Inson resurslarini rivojlantirish va liderlik" fanining o'quv dasturi va o'quv-metodik majmua, o'quv modullarini takomillashtirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

zamonaviy rahbar boshqaruv xodimlarini tayyorlashning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha **ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.**

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan ilmiy natijalar-ning metodologik-uslubiy, aksiologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar hamda ma'naviy-kasbiy rivojlantirishga doir milliy va xorijiy tajribalar asosida asoslanganligi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot usul-larining qo'llanilganligi, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor va sifat jihatidan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy qilinib, vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar oliy ta'lim tizimida zamonaviy rahbar boshqaruv xodimlarini, talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish va samaradorligini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirishga hamda mavzuga oid o'quv jarayonini samarali tashkil etishning pedagogik-nazariy imkoniyatlarini rivojlanishiga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalardan oliy ta'lim tizimida zamonaviy rahbar boshqaruv xodimlarini tayyorlashni pedagogik-tashkiliy jihatdan samarali tashkil qilish, mavzuga oid pedagogik tadbirlarni samarali tashkil qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish, mavzu yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqotlarning ilmiy bazasini kengaytirish hamda mazkur mavzuga oid darslik va o'quv qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim tizimida zamonaviy rahbar va boshqaruv xodimlarini tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

oliy ta'lim tizimida zamonaviy rahbar va boshqaruv kadrlarini tayyorlash modeli muammoga protsessual-texnologik va analitik-samarali bloklarning pedagogik-tashkiliy birligi hamda pedagogik-boshqaruv faoliyatida ijtimoiy

yo‘nalishning uchta pozitsiyadan ko‘rib chiqilishi zarurati (ijtimoiy ehtiyoj-larning umumiy yo‘nalishi; ta’lim tizimi talablari; ta’lim muassasasining talablari) kabilarga ko‘ra prognostik qarash asosida takomillashtirishga oid taklif Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2023-yil 26-iyundagi 211-sonli buyrug‘i bo‘yicha ruxsatnoma bo‘yicha chop etilgan “Inson resurslarini rivojlantirish va liderlik” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023 yil 12 dekabrda 02/01-01-180-sonli ma’lumotnomasi). Taklif pedagogik-uslubiy jihatdan pedagogik jarayonlarni modellashtirishning aniqlik, tizimni tashkil etuvchi omil va jarayonlarning yaxlitliklik va faoliyatning ijtimoiy yo‘naltirilganlik darajalarini oshirishga hamda o‘quv dasturining boshqaruv faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra shakllantirilishiga muayyan darajada xizmat qilgan;

tajriba-sinov ishlari natijalariga ko‘ra tanlangan pedagogik sharoitlar zarur va yetarli ekanligini isbotlangan holda tadqiqotning maqsadli auditoriyasi uchun raqamli transformatsiya, menejment, HR, moliya boshqaruvi kabilar bo‘yicha qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini hamda sardorlik salohiyatini rivojlantirishda motivatsiyalash, jamoa bilan ishlash va ijtimoiy mas’uliyat yuzasidan tizimli seminarlarni tashkil qilishning maqsadga muvofiqligiga oid taklif tadqiqot obyektlari amaliy faoliyatiga joriy qilingan hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2023-yil 26-iyundagi 211-sonli buyrug‘i bo‘yicha ruxsatnoma asosida chop etilgan “Inson resurslarini rivojlantirish va liderlik” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023 yil 12 dekabrda 02/01-01-180-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklif zamonaviy intellektual yondashuvlarga ko‘ra innovatsion-ijodiy muhitni samarali shakllantirish va pedagogik tadbirlar sifatini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

boshqaruv kompetentligining kommunikativ-ijodiy muhitini tashkil qilish mazmuni iqtisodiyot sohasidagi o‘zgarishlar va ehtiyoj asosida maqsadlarga sinxron tarzda ta’lim jarayonini moslashtirib borish hamda faoliyatning o‘ziga xos ijtimoiy xususiyatini e’tiborga olgan holda ta’lim mazmunida boshqaruv qarorini qabul

qilishdagi ijtimoiy mas'uliyatga alohida urg'u berish asosida takomillashtirishga oid taklif Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2023-yil 26-iyundagi 211-sonli buyrug'i bo'yicha ruxsatnoma asosida chop etilgan, "Inson resurslarini rivojlantirish va liderlik" nomli darslik mazmuniga singdirilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 12-dekabrdagi 02/01-01-180-sonli ma'lumotnomasi). Taklif iqtisodiyot sohasidagi o'zgarishlar va ehtiyoj asosida maqsadlarga sinxron tarzda ta'lim jarayonini moslashtirib borishi hisobiga ta'lim sifatini oshirishga hamda boshqaruv xodimlarining qaror qabul qilishida ijtimoiy mas'uliyatni pedagogik jihatdan ta'minlash samarador-ligini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

oliy ta'lim tizimida boshqaruv xodimlarini tayyorlashning asosiy mezonlari ijtimoiy-kasbiy bilimlar, bashoratlash qobiliyati, kasbiy va boshqaruv qobiliyat, innovatsiyalarga tayyorlik, tashkiliy mahorat, kasbiy va shaxsiy fazilatlardan iboratligining maqsadga muvofiqlik bo'yicha taklif Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2023-yil 26-iyundagi 211-sonli buyrug'i bo'yicha ruxsatnoma asosida chop etilgan "Inson resurslarini rivojlantirish va liderlik" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 12-dekabrdagi 02/01-01-180-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklif oliy ta'lim tizimida zamonaviy rahbar xodimlarni tayyorlash sifatini oshirish hamda faoliyat natijalarining samaradorlik va ijtimoiy naflilik darajasini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta respublika 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 130 sahifani tashkil qiladi.